



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TIL VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Rektor Sh. Sirojiddinov

2019 yil “1” 07



“QILISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

2019 yil “4” 10

Ro‘yxatga olindi: №BD-5111200-3.04

2019 yil “17” 08

O‘ZBEK ADABIYOTI
FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi: 110 000 – Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi: 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti

Toshkent-2019

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019-yil 17.08 dagi "4" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 04.10 dagi "892" - sonli buyrug'ining 2 - ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

M. Abdullayeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

B.Abdurahmonova - Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti o'zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Q.Qahramonov –O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori, filologiya fanlari doktori

O.Tojiboyeva - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti va folklorshunoslik kafedrasi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019-yil 1.07 dagi ~~14~~sonli bayonnomasi).

k/m. Abdullayeva M. Abant
A. P. Qahramonov

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Mustaqillik sharofati bilan o'tmish madaniy merosiga munosabat tubdan o'zgardi, yangilandi. Ma'naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashda ajdodlarimiz merosini o'rganishning muhim ahamiyatga ega ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi. Mumtoz adabiyotimizning durdona asarlarini haqqoniy tarzda o'qish va tushunish imkoniyatiga ega bo'ldi.

“O'zbek adabiyoti tarixi” o'quv fani eng qadimgi davrdan bugungi kunga qadar yozilgan va yozilayotgan muhim adabiy manbalarni, ularning mualliflari hayoti va faoliyatini, adabiy muhit va jarayonni, aniqrog'i, o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Ushbu fan o'zbek mumtoz adabiyotining dolzarb muammolari, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, o'zbek mumtoz adabiyotiga kirish, mumtoz poetika, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, jadidchilik harakatining adabiyotdagi ifodasi ularoq dunyoga kelgan milliy uyg'onish adabiyotining xos xususiyatlarini hamda istiqloq davri adabiyotidagi o'zgarishlarni qamrab oladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

“O'zbek adabiyoti” eng qadimgi davrlardan XX asrning boshlarigacha, mustaqillik davrida yaratilgan muhim adabiy merosni o'rganish, bu adabiyotni yaratgan shoirlar, adiblar – mualliflar hayoti va ijodiy faoliyatini, adabiy-ijtimoiy muhit, xalqlar o'rtasidagi adabiy va madaniy aloqalar va eng muhimi, o'zbek badiiy tafakkuri taraqqiyoti tadjirini o'rganishni va o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Mazkur fanning vazifasi o'zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, har bir bosqichda yashab ijod etgan ijodkorlar asarlarini g'oyaviy-badiiy, estetik jihatdan tahlil va talqin qilish, milliy va zamonaviy adabiyotning eng nodir namunalarini o'rganishni nazarda tutadi.

Talaba:

O'zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyoti davomida so'z san'ati takomili, estetik ta'sirini his etish, jumladan, adabiy-badiiy matn ustida ishlash, badiiy matnlarda qo'llaniladigan tasviriy vositalar, she'riy san'atlar yuzasidan bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

Lug'at ustida ishlay olish, eski o'zbek yozuvi, arab, fors tillaridan xabardor bo'lish va muhim xulosalar yasay olish, o'zbek adabiyotining yuksak g'oyaviy-badiiy va ilmiy-nazariy bilimlarini o'rganishi uchun talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur:

- o'zbek adabiyoti konsepsiyasining o'ziga xosligi;
- o'zbek mumtoz adabiyotining ifoda usullari;
- o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodining yetakchi tamoyillari.
- o'zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari;
- o'zbek adabiyotining yetakchi xususiyatlarini aniqlash;
- o'zbek adabiyotida jadidchilikning o'rnini belgilash;
- o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalar hayoti va ijodini tavsiflash;
- o'zbek adabiyotining tarixiy-milliy, miliy-zamonaviy xususiyatlarini anglash;
- har bir ijodkorning o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini aniqlash.

Bu esa talabalarda o'zbek adabiyoti nafosatini teran his qila olish va tahlil etish malakasiga ega bo'lishlariga yordam beradi.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

I-modul. Kirish. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar

1-mavzu. O'zbek adabiyoti tarixi fanining maqsad va vazifalari

Adabiyot – so'z san'ati, hayotning badiiy in'ikosi ekanligi. O'zbek adabiyoti o'zbek xalqining eng qadimgi davrlardan hozirgacha bo'lgan badiiy hayotini o'rgatuvchi fan sifatida. Adabiyot tarixining muhim masalalari: asosiy rivojlanish bosqichlari, janrlari, adabiy til, uslub masalalari, folklorga munosabat,

an'ana va mahorat, adabiy aloqalar. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalasi. O'zbek mumtoz adabiyoti manbalari. Adabiy va madaniy merosga munosabat. Adabiy meros va milliy istiqlol mafkurasi.

2-mavzu. Eng qadimgi og'zaki va yozma adabiy yodgorliklar

Qadimiy adabiy yodgorliklar tasnifi. Og'zaki va yozma yodgorliklar. Qadimgi mif va afsonalar; qahramonlik eposi; qadimgi qo'shiq va lirik she'rlar.

Avesto. "Avesto" Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yozma yodgorligi, zardushtiylikning muqaddas kitobi ekanligi. Zardusht va zardushtiylikning paydo bo'lishi, o'z davri hayoti uchun progressivligi. "Avesto"ning saqlanib qolgan qismlari va ilmiy ahamiyati.

O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari yaratilish tarixi va tarqalish o'rni. "Kul-Tegin" va "To'nyuquq" bitiktoshlarining mazmuni, ulardagi qahramonlik, xalq mustaqilligi, yurt daxlsizligi uchun kurash motivlari va bu g'oyaning bugungi kun bilan hamohanglik jihati.

II-modul. X-XII asrlar o'zbek adabiyoti

3-mavzu. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devoni lug'otit-turk" asari

Asarning adabiyotga bevosita aloqador jihatlar: maqollar, hikmatli so'zlar, she'riy parchalar, ularning mazmun mohiyati, ularda xalq donoligi, orzu istaklariga xos jihatlari. Asar – turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi sifatida.

4-mavzu. Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari

Asar turkiy yozma adabiyotning ilk yirik adabiy namunasi sifatida. Asarning sujeti va kompozitsiyasi. Asarda markazlashgan davlat va odil shoh g'oyasining ifodalanishi. Asarda komil inson qiyofasi. Asardagi qasida va to'rtliklar. "Qutadg'u bilig"da ta'lim-tarbiyaning barcha jabhalari in'ikosi; ma'rifatparvarlik g'oyalarining targ'ib etilishi.

5-mavzu. Ahmad Yugnakiy va uning "Hibat-ul haqoyiq" asari.

"Hibat-ul haqoyiq" qadimgi turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi. Asarda didaktik ruhning ustuvorligi. Dostonda axloq-odob, ilm-ma'rifat targ'ibi yetakchi

ekanligi. Dostonda komil inson tarbiyasining yetakchiligi. Doston tili va badiiy xususiyatlari.

III- modul. XIII-XIV asrning birinchi yarmi adabiyoti

6-mavzu. Rabg'uzly hayoti va ijodi. Durbek hayoti va ijodi

Rabg'uziy va uning "Qisasi Rabg'uziy" asari. Asarning mavzusi, mandarijasi. Asardagi qissa va hikoyatlar, ularning mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. "Qisasi Rabg'uziy"dagi hikoyalarga xalq og'zaki ijodining ta'siri.

Durbek va uning "Yusuf va Zulayho" dostoni. Dostonning yozilishi, obrazlar tizimi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Dostonda xalq og'zaki ijodining ta'siri, an'analari. Dostonning uslubi va tili.

7-mavzu. Xorazmiy va Sayfi Saroyi hayoti va ijodi

Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma" asari. Asar turkiy adabiyotda "noma" janrining ilk namunasi ekanligi. Asarning janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlari.

Sayfi Saroyining hayoti va ijodiy merosi. Sayfi Saroyi lirik shoir, dostonnavis va tarjimon; she'riyati, "Suhayl va Guldursun" dostoni, "Guliston bit-turkiy" asari. Ularga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.

8-mavzu. Atoiy va Sakkokiy hayoti va ijodi

Atoiy hayotiga doir ma'lumotlar. Atoiy she'riyati, g'azallariga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlar. Atoiy lirikasining yetakchi janrlari. Oshiq va ma'shuq timsollari. G'azallari badiiyati.

Sakkokiy – g'azalnavis va qasidanavis shoir. G'azal va qasidalarida badiiy mahorat masalasi. Sakkokiy qasidalarining mavzulari. Shoir qasidalarida temuriylar siyмосi. Bu timsollar tasvirida haqiqat va mubolag'a.

9-mavzu. Mavlono Lutfiy hayoti va ijodiy merosi

G'azaliyoti. Lutfiy g'azallarida xalqona xususiyatlar va badiiy mahorat masalasi. Shoir ijodida raqib, oshiq va ma'shuqa timsollari. Lutfiy tuyuqlari,

ruboiylari. Lutfiyning mahorati va san'atkorligi. Lutfiy – zullisonayn shoir. Lutfiy lirikasi va musiqa. ularning kuyga solib aytilishi. Lutfiyning o'zbek adabiyoti rivojida tutgan o'rnini.

Davr adabiyoti haqida yakunlovchi xulosa.

III- modul. XV-XVII asrlar adabiyoti

10-mavzu. Adabiy til taraqqiyoti va badiiy ijoddagi o'ziga xosliklar

XV- XVII asrlar madaniy va adabiy hayot. Ilm-fan rivoji. Temuriylar davri adabiyoti. Mavzu va janr rang-barangligi. G'azal janri, uning mazmuni va tuzilishi. Adabiyotda yangi janrlarning paydo bo'lishi. Husayn Boyqaro davlat arbobi va adabiyot homiysi sifatida. Jomiy va Navoiy Hirof adabiy maktabining ustozlari sifatida. Navoiyshunoslikning asosiy masalalari. Navoiy adabiy merosi. Navoiy lirikasining muhim g'oyaviy-badiiy o'ziga xosliklari. "Xamsa" an'anaviy va original ijodiyot namunasi sifatida. "Lison-ut tayr" va "Mahbub-ul qulub" asarlari. Navoiy ilmiy risolalari tasnifi va tavsifi.

11-mavzu. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va adabiy faoliyati

Bobur lirikasi. Shoir devonlari. Lirik merosining janr xususiyatlari, mavzu ko'lamini. Obrazlar dunyosi. Badiiy tasvir vositalari. "Boburnoma" tarixiy-adabiyot memuar asari. Uning kompozitsion qurilishi, janr xususiyatlari, badiiyati.

12-mavzu. Muhammad Solih va Xoja hayoti va ijodi.

"Shayboniyнома" - tarixiy doston. Shoir hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar. "Shayboniyнома" dostonida tarixiy haqiqatning badiiy in'ikosi. "Shayboniyнома"da temuriylar timsoli. Asarning qurilishi. Shoirning timsol yaratish mahorati. Badiiy san'atlar, tasvir vositalari, ularning vazifalari. Mubolag'a, tashbeh, tazod, jonlantirish va boshqalar.

Xoja hikoyalari. “Miftohul-adl” va “Gulzor” asarlarining tuzilishi. Ijodkor to‘plamlaridan hikoyatlarning mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Hikoyalarning manbalari. Komil inson – Xoja hikoyalari bosh masalasi. “Miftohul adl” va “Gulzor”da axloqiy-ta’limiy muammolarning ko‘tarilganligi.

IV- modul. XVII – XIX asrlar o‘zbek adabiyotida ijtimoiy siyosiy va madaniy hayotdagi o‘zgarishlar

13-mavzu. XVII – XIX asrlarda ijtimoiy siyosiy va madaniy hayot

XVII – XIX asrlar ijtimoiy siyosiy hayoti Xorazm, Qo‘qon va Buxoro xonliklarining yuzaga kelishi va ular o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xosliklari bilan xarakterlanishi. Ushbu davrda bunyod etilgan me‘morchilik yodgorliklari, yaratilgan tarixiy asarlar, davr adabiyoti haqida ma’lumotlar beruvchi tazkiranavislik, xalq og‘zaki ijodi va “xalq kitoblari” va ularning o‘ziga xos badiiyati haqida ma’lumotlar berish ko‘zda tutiladi. Davr badiiy adabiyoti va uning janr xususiyatlari haqida ma’lumotlar beriladi. Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlari hamda ularning ilmiy-badiiy qimmati. Bu davr adabiyotida adabiy aloqalarning tutgan o‘mi.

14-mavzu. Turdi Farog‘iy ijodi. Boborahim Mashrab ijodi.

Turdi hayoti, ijtimoiy va ijodiy faoliyati haqida ma’lumotlar. Adabiy merosi va uning janr xususiyatlari. Ijtimoiy hajviyotning taraqqiyotida Turdi ijodining roli. Shoir asarlarida ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarning badiiy ifodalanishi. O‘zaro totuvlik va birlashishga da’vatning tarixiy ahamiyati.

Mashrab haqida ma’lumot beruvchi manbalar. “Devoni Mashrab” she’riy to‘plami, o‘ziga xos xususiyatlari, janr tabiati. She’riyatida shoir dunyoqarashining o‘ziga xosligi ifodasi, badiiy mahorat masalalari. Mashrab va so‘fizm. “Qissai Mashrab”lar va ularda shoir siyмосi.

15-mavzu. Xo‘janazar Huvaydo va So‘fi Olloyor ijodi

Xo'janazar Huvaydoning ijodiy merosi. Xususan, she'riyatida shoir dunyoqarashining qirralari: odob-axloq, ilm-ma'rifat, diniy va so'fiyona qarashlar talqini. Poetik mahorat masalalari. "Rohati dil" dostoni va uning axloqiy-ta'limiy jihatlari.

So'fi Olloyor ijodi. Hayoti, ijtimoiy va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar. "Murodul orifin", "Sabotul - ojizin" va "Maslakul -muttaqin" asarlarining g'oyaviy mundarijasi va badiiy qimmatlari. So'fi Olloyor ijodida islomiy ma'rifat targ'ibi.

16-mavzu. Muhammadniyoz Nishotiy hayoti va ijodi

Nishotiy adabiy merosi. "Qushlar munozarasi" asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Timsollarda majoziylik. Qushlar timsolining talqinida badiiy va ijtimoiy niyati. "Husn-u dil" dostoni. Dostonning yozilish tarixi va sabablari. Dostonning janr xususiyatlari. Undagi majoziylik. Dostonning mavzusi va asosiy muammosi. Unda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning majoziy timsollar vositasida ifodalanishi.

17-mavzu. Qo'qon adabiy muhiti. Amiriy hayoti va ijodi

Qo'qon adabiy muhitining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni. Umarxon - Amiriy davlat arbobi, homiy va ijodkor sifatida. Amiriy devonining g'oyaviy-badiiy mundarijasi. Umarxon qoshidagi ijodkorlar davrasining faoliyati.

18-mavzu. Gulxaniyning ijodiy merosi. Maxmur ijodiy merosi

Hayoti va ijodiy merosiga oid manbalar va ularda mavjud ma'lumotlar. Gulxaniy she'riyati va uning mazmun-mohiyati. "Zarbulmasal" asari. Masal janri xususiyatlari. Asarning kompozitsiyasi, mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy jihatlari.

Hayoti va ijodiy faoliyati. Maxmurning adabiy merosi. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi she'rlari. Hajviy she'rlar turkumining yaratilishi. Hajviyotda shoir mahorati. Shoir ijodida o'z-o'zini fosh etish san'atining o'rni.

19-mavzu. Jahonotin Uvaysiy ijodiy merosi. Mohlaroyim Nodira ijodiy merosi

Hayot yo'li va ijodiy merosi. She'riyati. Unda shoira dunyoqarashiga oid muhim qirralar: zamona va shoira shaxsiyati o'rtasidagi ziddiyatlarning badiiy ifoda etilishi. Ruhiyat tasviri va badiiy mahorat. Uvaysiy dostonlari. Uvaysiy va xalq og'zaki ijodi.

Mohlaroyim Nodiraning ijodiy merosi. She'riyati. Shoira she'riyatida ruhiyat tasviri va ishq talqini. Shoira lirikasida ayriliq-hijron motivlari. Nodira g'azaliyotida xalqparvarlik va adolatparvarlik g'oyalari. Nodira she'rlarida ilm-ma'rifatning ulug'lanishi. Bugungi o'zbek adabiyoti va san'atida Nodira timsoli.

20-mavzu. Xorazm adabiy muhiti. Muhammad Rahimxon II ning adabiy muhit rivojidagi o'rni. Shermuhammad Munis Xorazmiy.

Hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar. Munisning lirik shoir, tarixchi, tarjimon, murabbiy va xattot sifatidagi ijodiy merosi. "Munis ul-ushshoq" devoni, janr tabiati, g'oyaviy badiiy xususiyatlari. "Firdavs ul-iqbol", "Savodi ta'lim" asarlari, "Ravzat us-safo" tarjimasida.

21-mavzu. Ogahiy hayoti va ijodi.

Hayoti va ijtimoiy faoliyati. Ogahiy - ulkan shoir va zabardast tarixchi, mohir tarjimon, iste'dodli san'atkor. "Ta'viz ul-oshiqin" devoni. Devon "debocha"sidagi ma'lumotlar. Devonning janr tabiati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Ogahiy - tarixchi va tarjimon.

V-modul. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti

22-mavzu. XIX asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy siyosiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar va ularning davr ijodkorlari ijodiga ta'siri.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy hayot. Turkistonning Rossiya tomonidan zabt etilishi. Qo'qon xonligining

tugatilishi. Buxoro va Xiva xonliklarining qaram bo'lib qolishi. Adabiyotning ijtimoiy-siyosiy voqealarga yaqinlashuvi, xalqchillikning kuchayishi. Ma'rifatparvarlik harakati va badiiy adabiyotdagi ko'rinishi. Hajviyot taraqqiyoti. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti, g'oyaviy-estetik mundarijasi, mavzu ko'lami.

23-mavzu. Muqimiy va Furqat ijodiy merosi

Aminxo'ja Muqimiy hayoti va ijodiy merosi, janr xususiyatlari. Muqimiy she'riyati va undagi xalqona ohanglar. Muqimiy hajviyoti va sayohatnomalari, ularda shoirning hajv mahorati.

Furqatning hayot yo'li: Toshkentdagi va chet ellardagi hayoti. Ijodiy merosi. Sheriyati. Shoir she'riyatida an'ana va mahorat. Masnaviyolari, ularda ma'rifatparvarlik g'oyalari ifodasi. Furqatning adabiy-estetik qarashlari. Furqat publitsistikasi. Risolalari.

24-mavzu. Muhammadniyoz Komil Xorazmiy va Avaz O'tar o'g'li ijodi

Muhammadniyoz Komil Xorazmiy hayoti, ijtimoiy-siyosiy va ijodiy faoliyati. Ijodiy merosi. Devonining g'oyaviy-badiiy mundarijasi, janr rang-barangligi. She'riyatining mavzu va obrazlari. Ijtimoiy va ma'rifatparvarlik xarakteri.

Avaz O'tar o'g'li hayoti va ijodiy faoliyati. Adabiy merosining janr xususiyatlari. Devonlarining g'oyaviy-badiiy mundarijasi. Ijtimoiy-siyosiy she'riyati. "Xalq", "Millat", "Hurriyat", "Til". Tanqidiy-hajviy she'rlari.

25-mavzu. Zavqiy hayoti va ijodi

Zavqiy o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri sifatida. Zavqiy lirikasi. Shoir lirikasining mavzui, g'oyaviy yo'nalishi va janr xususiyatlari. Zavqiy – satirik shoir. Zavqiy sayohatnomasi.

VI- modul. Milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti

26-mavzu. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot

Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va g'oyalari. M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat, A.Qodiriy, A.Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalar ijodida ma'rifatparvarlik va milliy ozodlik g'oyalarining shakllana borishi. O'zbek matbuotining yuzaga kelishi. Ovropa tipidagi realistik adabiyotning vujudga kelish jarayoni. Adabiyotda yangi tur va janrlarning paydo bo'lishi hamda shakllana borishi haqida umumiy tushuncha.

27-mavzu. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi

A.Qodiriy ijodining XX asr o'zbek adabiyotida tutgan o'rni. Qodiriy hikoyalari. "Uloqda" hikoyasi – dastlabki o'zbek realistik hikoyasi sifatida. Qodiriy publisistikasi. A.Qodiriy – birinchi o'zbek romannavisi. "O'tgan kunlar" romani tevaragidagi bahs-munozaralar. "Mehrobdan chayon" romanida tarixiylik va zamonaviylik. "Obid ketmon" qissasi qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishning oqibatlarini realistik tasvirlovchi asar.

28-mavzu. Abdulhamid Cho'lpon hayoti va ijodi.

Cho'lpon ijodining milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida tutgan o'rni. Cho'lpon hikoyalari. "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadyor", "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar", "O'sh" kabi hikoya va ocherklari. Davr ziddiyati va Cho'lpon she'riyati. She'rlarida erk va istiqloq mavzularining kuylanishi. Cho'lpon she'riyatida lirik tuyg'ularning aks etishi. "Kecha va kunduz" romani poetikasi. Cho'lpon ijodining XX asr adabiyotida o'rganilishi.

29-mavzu. Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi. Usmon Nosir hayoti va ijodi.

Fitratning adabiy-madaniy merosi. Fitrat publisistikasi. Fitrat – adabiyotshunos olim. Fitratning ilmiy-nazariy qarashlari. Jadidchilik g'oyalari "Munozara" va "Hind sayyohi" asarlari ma'rifatparvarlik dasturi sifatida. Fitrat

dramaturgiyasi. “Abulfayzxon” dramasi tragediya janridagi dastlabki mukammal asar sifatida. Fitrat she’riyatida ozodlik va shaxs erki motivlarining ifodalanishi. Fitrat hikoyalarda ramziylik.

U.Nosir dostonlari davr ziddiyatining o’ziga xos oynasi. U.Nosir - dramaturg. Usmon Nosir – mohir tarjimon. Usmon Nosir she’riyatida jo’shqinlik. U.Nosir ijodida Abdulhamid Cho’lpon g’oyalarning davom ettirilishi.

VII- modul. XX asr o’zbek adabiyoti

30-mavzu. Gafur G’ulom va Oybek hayoti va ijodi

G’.G’ulom o’zbek adabiyotining yetuk namoyandalardan biri sifatida. Tarjimai holi va adabiy merosi haqida ma’lumot. G’.G’ulomning 20-30-yillardagi ijodi. G’.G’ulom hikoyalarda satira va yumor. Adibning publisistik qarashlari. G’.G’ulom qissalari. “Shum bola” - yumoristik asar. G’.G’ulom qissalarida davr va shaxs fojiasi.

Oybek hayoti va ijodi. Adibning adabiy merosi haqida ma’lumot. Oybek lirikasining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. Oybekning 30-yillardagi ijodi. Oybek dostonlarida ijtimoiy hodisalarning badiiy talqini. Oybek tarjimalari. Oybekning adabiy-estetik qarashlari. Oybek- romannavis.

31-mavzu. H.Olimjon va M.Shayxzoda hayoti va ijodi.

H.Olimjon-baxt va shodlik kuychisi. H.Olimjon – tarjimon, adabiyotshunos. Ertak dostonlari. Hamid Olimjon ijodida xalq og’zaki ijodining o’rni. Hamid Olimjon lirikasida tabiat tasviri. Hamid Olimjonning “Muqanna” dramasida vatanparlik motivlari.

M.Shayxzoda hayoti va ijodi. Shoirning 30-yillar she’riyati. Tragediyada zohiriy va botiniy konflikt. Dramatik asarlarida tarixiy shaxslar talqini. Urush yillariga xos jangovor lirika. “Toshkentnoma” dostonining badiiy talqinlari. Shayxzoda-yirik adabiyotshunos olim, mohir pedagog sifatida.

32-mavzu. A. Qahhor hayoti va ijodi

A.Qahhor-hikoyanavis. O'tmish mavzudagi hikoyalarida davr va shaxs tasviri. Zamonaviy mavzudagi hikoyalarida optimistik ruhning aks etishi. A.Qahhor romannavis. "Sarob" romani tevaragidagi bahslar. A.Qahhor - tarjimon. Adibning estetik qarashlari. "Yoshlar bilan suhbat" asarida yozuvchi adabiy-estetik qarashlarining namoyon bo'lishi.

33-mavzu. Mirtemir va Zulfiya hayoti va ijodi

Shoir ijodida davr ziddiyatlarining tasviri. Shoir ijodida tabiat lirikasi. Mirtemir – tarjimon. Shoir she'riyatida shaxsiy kechinmalar ifodasining lirik tasviri. Mirtemir ijodida an'anaviylik va novatorlik. Mirtemir she'riyatida xalqona chizgilar.

Zulfiya hayoti va ijodi. Shoira she'riyatida hijron va sadoqat motivi. Baxt va sevgi, g'am-hijron shoira lirikasining qo'sh qanoti ekanligi. "Xotiram siniqlari" poemasi shoira avtobiografiyasini o'rganishda yangi qirralarni namoyon qilganligi.

34-mavzu. S.Ahmad va O'.Hoshimov hayoti va ijodi

S.Ahmad romanlarida realistik hayot tasviri. "Ufq" trilogiyasi - o'zbek xalqining milliy turmush tarzi va mehnatkash xalq hayotini ifodalovchi asar. Said Ahmad-hikoyanavis, dramaturg. Adib ijodida istiqloq davri imkoniyatlarining aks etishi. Said Ahmad satirik va yumoristik asarlar ustasi. Prozada tragik fojeliqning lirik ifodasi.

O'.Hoshimov – mahoratli romannavis. "Ikki eshik orasi" va "Tushda kechgan umrlar" romanlari - urush muammosining insoniyat boshiga keltirgan fojialari va milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlar muammosini badiiy talqin qiluvchi. asarlar. "Dunyoning ishlari" qissasida Ona siymosining badiiy talqini. O'tkir Hoshimov – publitsist.

35-mavzu. P.Qodirov va O.Yoqubov hayoti va ijodi

P.Qodirov qissalarida shaxs va ma'naviyat maslalarining yoritilishi. P.Qodirov mahoratli romannavis, Bobur hayoti va faoliyatini o'rganishda adib

ijodining tutgan o'ri. "Ona lochin vidosi" romanida temuriylar qismatining yangicha talqinlari. P.Qodirov – tarixiy romanlar muallifi.

O.Yoqubov asarlarida ma'naviyat masalasi – bosh pafos sifatida. O.Yoqubov romanchiligi. Tarixiy romanlarda hayot haqiqati va badiiy to'qima. Adibning istiqloq davri ijodida ruhiyat manzaralarining kashf etilishi. "Alvido, Moriko" qissasi "Bir koshona sirlari" dramasi inson ruhiyati kechinmalari tasviri.

36-mavzu. E.Vohidov va A.Oripov hayoti va ijodi

E.Vohidov hayoti va ijodi. E.Vohidov she'riyatida an'ana va novatorlik. E.Vohidov ijodida hajviy yo'nalish. "Yoshlik" devoni va zamonaviy g'azalchilik muammolari. Shoir dostonlarida shaxs erki va ma'naviyat, ma'rifat masalalarining yoritilishi. E.Vohidovning istiqloq yillari davridagi ijodi.

A.Oripov she'riyatida badiiy mukammallik va falsafiy teranlik. A.Oripov – tarjimon. A.Oripovning istiqloq yillari davridagi ijodi. Shoir dramatik dostonlarida ma'naviyat masalasining badiiy talqini. "Haj daftari" turkumiga kiruvchi she'rlarida islomiy-axloqiy masalalarning yoritilishi.

37-mavzu. Mustaqillik davri o'zbek adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari. Milliy mafkura va adabiyot.

Istiqloq davri o'zbek she'riyatining taraqqiyot tamoyillari. Mustaqillik davri ijodkorlarining she'riyatida milliy ruh va an'analar. Hozirgi o'zbek she'riyatining janriy xususiyatlari. Qissachilikning janriy takomili. Hozirgi o'zbek romanchiligidagi janriy izlanishlar. O'zbek adabiyotida modern adabiyoti. Milliylik va haqchilik.

IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar eng qadimgi yozma adabiy yodgorlikdan tortib, XX asr adabiyoti namoyandalari hayoti

va ijodi, mustaqillik davri milliy va zamonaviy adabiyotning takomili bilan yaqindan tanishib boradi. Har bir davrning ko'zga ko'ringan ijodkorlari asarlarini o'qib, tahlil qiladi, munosabat bildiradi. Adabiy muhitning ijtimoiy masalalarini, adabiy jarayondagi yangilanishlarni adabiy-badiiy asarlar orqali o'rganadilar. O'zbek adabiyotining shakllanish tarixi, taraqqiyot bosqichlari va bugungi rivojlanish tamoyillarini o'zlashtiradilar.

Tavsiya qilinayotgan amaliy mashg'ulot mavzulari:

1. Asotirlar va qahramonlik qissalari
2. Qadimgi qo'shiqlar va lirik she'rlarning mavzu doirasi
3. "Avesto"-adabiy-badiiy manba sifatida
4. O'rxun-Enasoy yodgorliklari
5. X-XII asrlarda fors-tojik adabiyoti
6. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'otit-turk" asari
7. Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari
8. Yassaviy va uning hikmatlar to'plami
9. Pahlavon Mahmud- ruboiynavis
10. Rabg'uziy. "Qissasi Rabg'uziy" asari
11. "Muhabbatnoma" – noma janrining yetuk namunasi sifatida
12. Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" asari
13. Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z" dostoni
14. Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin" dostoni - erkin tarjima namunasi sifatida
15. Durbekning "Yusuf va zulayho" dostoni
16. Atoiyning badiiy mahorati
17. Sakkokiy qasidanavis
18. Lutfiyning badiiy mahorati
19. Bobur lirikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
20. Mashrab she'riyati tahlili
21. Huvaydo lirik shoir. "Rohati dil" – ma'rifiy didaktik doston

22. Amiriy – zullisonayn shoir.
23. “Zarbulmasal”ning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari
24. Uvaysiy lirikasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari
25. Nodira she‘riyatida ishq talqini va ruhiyat tasviri
26. Munis va Ogahiy she‘riyati
27. Nishotiyning “Husnu Dil” dostoni badiiyati va obrazlar tizimi tahlili
28. Muqimiy – lirik shoir
29. Furqat va Zavqiy she‘riyati
30. Komil Xorazmiy va Avaz O‘tar g‘azallari tahlili
31. M. Behbudiy hayoti va ijodi haqida ma‘lumot
32. A. Avloniy hayoti va ijodi
33. A. Fitrat – dramaturg. Adabiyotshunos olim
34. H. Niyoziy – dramaturg
35. Abdulla Qodiriy romanlarida tarixiylik va badiiylik
36. A. Cho‘lpon she‘riyati va nasrida ruhiyat talqini

V. Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil qilishda tavsiya etilgan ilmiy muammo yoki masala yuzasidan talabalarga oldindan seminar rejasi va unga muvofiq adabiyotlar ro‘yhati beriladi. Seminar mashg‘ulotlariga ko‘proq nazariy muammolar olib chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Talabalar seminar mashg‘ulotlarida o‘zbek adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi, asarlar badiiyati, mazmuni-mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan o‘zlashtiradilar, adabiy jarayon va badiiy ijod qonuniyatlarini o‘rganadilar.

1. «Boburnoma» - tarixiy-adabiy memuar asar
2. Muhammad Solih va uning “Shayboniynoma” asari
3. Qul Ubaydiy hayoti va ijodi
4. Xoja ijodi

5. Turdi Farog'iy ijodiy merosi
6. So'fi Olloyor hayoti, tariqati va asarlari
7. Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" asarlari
8. Ogahiy –tarixnavis.
9. Muqimiy sayohatnomalari va hajviyoti
10. Zavqiy sayohatnomalari va hajviyoti
11. Furqat dostonlari va publitsistikasi
12. Anbar Otin hayoti va ijodi
13. Is'hoqxon Ibrat hayoti va ijodiy faoliyati
14. Dilshodi Barno hayoti va ijodi
15. Maxmur hayoti va ijodi
16. Feruz adabiy merosi
17. Hamza Hakimzoda Niyoziy dramalari tahlili
18. Oybek adabiy merosi
19. H. Olimjon she'r va dostonlari
20. A. Qahhor – nasr ustasi.
21. M. Shayxzoda dramalarida tarixiy hiqiqat va badiiy to'qima
22. Mirtemir she'riyati
23. S. Ahmadning asarlarida davr va shaxs talqini
24. O. Yoqubov romanlari
25. Pirimqul Qodirov tarixiy romanlari
26. Erkin Vohidov - lirikasi
27. A. Oripov she'riyati
28. O'tkir Hoshimov - romannavis
29. Shukur Xolmirzayev – hikoyanavis
30. Tog'ay Murod romanlarida an'ana va novatorlik
31. Murod Muhammad Do'st qissa va hikoyalari
32. Xayriddin Sultonov asarlarida tarixiylik va zamonaviylik
33. Nazar Eshonqul nasri

34. Halima Hudoyberdiyeva she'riyati
35. Usmon Azim she'riyati
36. Shavkat Rahmon lirikasi
37. Azim Suyun she'riyati
38. Xurshid Davron she'riyati
39. Ulug'bek Hamdam ijodi
40. Muhammad Yusuf she'riyatida Vatan madhi
41. Mirza Kenjabek she'riyati va tarjimalari
42. Istiqlol davri o'zbek she'riyatining taraqqiyot tamoyillari. Hozirgi o'zbek she'riyatining janriy xususiyatlari
43. I. Mirzo, Z. Mirzo she'riyatida milliy ruh va an'analar
44. Hozirgi o'zbek qissachilikning janriy takomili. Qissalarda milliy an'ana talqini
45. Hozirgi o'zbek she'riyatining janriy xususiyatlari
46. Hozirgi o'zbek romanchiligi
47. Hozirgi o'zbek hikoyachiligi
48. Mustaqillik davri dramaturgiyasi

VI. Mustaqil ta'limning shakli va mazmuni

Talabaga mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.
- O'rganilmagan, muammoli mavzular bo'yicha tezis, maqolalar tayyorlash;

- Badiiy asarlarni o'qish va mutolaa qilish;
- Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- Masofaviy (distantion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Dostonchilik muamolarini o'rganish
2. "Ming bir kecha" asarida hikoya qilish san'ati
3. Kaykovusning "Qobusnoma" asaridagi hikoyat va tamsillar
4. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridagi hikoyatlar tahlili
5. Umar Xayyom "Navro'znoma" asari tahlili
6. Firdavsiy "Shoxnoma"si qahramonlari. Ularning keyingi davr epik poeziyasiga ko'chishi
7. "Chaxor maqola" (Nizomiy Aruzi Samarqandiy) asari tahlili
8. Sa'diy Sheroziy "Guliston" asarining Sharq adabiyotida tutgan o'rni
9. Safarnoma va sayohatnoma turkumidagi asarlar (Nosir Xusrav, Ibn Batuta va boshqalarning asarlari misolida)
10. Abduraxmon Jomiyning "Bahoriston" asari tahlili
11. Eski o'zbek tilidagi filologik asarlardan Tole Imon Hiraviyning "Badoi" ul-lug'at", "Abushqa" lug'atlari va Muhammad Yoqub Changiyning "Kelurnoma" lug'atining o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi uchun muhim manba ekanligi
12. O'zbek mumtoz adabiyotining Rossiyada va Yevropada o'rganilish tarixi
13. "Devonu lug'otit turk"dagi adabiy janrlarni o'rganish
14. Paxlavon Mahmud ruboiylari tahlili
15. "Al jomi as-sahih" dagi hadislardan namunalar to'plash
16. Gul va bulbul obrazlari aks etgan baytlar tahlili
17. May, soqiy, tarso, jom, xarobot timsollari keltirilgan baytlarni to'plash
18. Ranglar va raqamlarning ramziy ma'nolari

19. G'azal tahlili mezonlari
20. Bobur g'azallarining vazn xususiyatlarini o'rganish
21. Qadimgi turkiy yodgorliklar bo'yicha O'zbekistonda yaratilgan ilmiy asarlarning bibliografiyasini tuzish, monografiyalarga annotatsiya yozish
22. Ibn Sinoning adabiy faoliyatiga oid asarlar annotatsiyasini tuzish
23. Beruniyning adabiyotga oid faoliyatini o'rganish, "Mineralogiya" kitobidagi hikoyatlarni tahlil qilish
24. Navoiy – xamsanavis
25. "Hayrat ul-abror" dostonining ta'limiy-didaktik xususiyatlari
26. "Farhod va Shirin" dostonida ilm va hunar haqida
27. "Layli va Majnun" dostonida ilohiy ishq mohiyati
28. "Sa'bai sayyor" dostoni hikoyatlarining qiyosiy o'rganish
29. "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazi
30. "Lison ut-tayr" - falsafiy-majoziy doston
31. "Mahbub ul-qulub" – axloqiy-ta'limiy asar
32. Navoiy – adabiyotshunos
33. Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari
34. Bobur lirikasi
35. "Boburnoma"ning badiiy xususiyatlari
36. Muhammad Solih hayoti va ijodi. "Shayboniynoma" – tarixiy doston
37. Xoja hikoyalari
38. Rahimbobo Mashrab ijodida falsafiylik
39. Xo'janazar Huvaydo ijodida o'ziga xoslik
40. Gulxaniy ijodida masallar badiiyati
41. Jahonotin Uvaysiy g'azallari mavzusi va tahlili
42. Mohlaroyim Nodira lirikasining janriy xususiyatlari
43. Munis Xorazmiy ijodiy merosi
44. Nishotiy hayoti va ijodi
45. Ogahiy hayoti va ijodi
46. Zokirjon Furqat hayoti va ijodiy merosi

47. Publisistika rivojida jadid ijodkorlarining o‘mi
48. Avloniy dramalarida jadidchilik g‘oyalari va davr fojiasi talqini
49. Fitrat prozasida davr illatlarining fosh qilinishi
50. Hamzaning “Salom ayting” turkum she‘rlarini tahlil qilish
51. Abdulla Qodiriyning xarakter yaratish mahorati
52. Cho‘lponning xarakter yaratish mahorati
53. XX asrning 20-30-yillari adabiyotidagi yetakchi tamoyillarni o‘rganish
54. II jahon urushi va urushdan keyingi davr o‘zbek adabiyotini tahlil qilish
55. H.Olimjon ijodining adabiyotshunoslikdagi tadqiqi
56. Mirtemirning “Surat” dostoni tahlili
57. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek nasriga xos yetakchi xususiyatlar
58. A.Muxtor she‘riyatiga xos poetik obrazlarni o‘rganish
59. E.Vohidovning istiqlol davridagi ijodi
60. Tog‘ay Murod romanlarida shaxs fojiasi talqini
61. O‘. Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida fojaviylik
62. Sh.Xolmirzayev romanlarida davr va shaxs fojiasi talqini
63. Bugungi adabiy j arayonda dostonchilik muammolari
64. Istiqlol davri adabiyotining taraqqiyot tendentsiyalari
65. Istiqlol davri o‘zbek she‘riyati sohasidagi izlanishlar
66. Hozirgi adabiy tanqidchilik tamoyillari
67. O‘zbek tarixiy romanchiligining yuzaga kelishi va taraqqiy etish tendentsiyalari
68. Bugungi kun o‘zbek dramaturgiyasiga xos yetakchi xususiyatlar
69. Bugungi kun o‘zbek publitsistikasida davr muammolarining yoritilishi
70. O‘zbek adabiyotiga G‘arb adabiyotining ta‘siri

VII. Kurs ishini loyhalash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

Kurs ishini yozishda talaba dastlab, mavzuni to'g'ri tanlashi va uning mohiyatini chuqur tushunib olishi kerak. Mavzu semestr boshida talabaga o'qituvchi tomonidan topshiriladi. Kurs ishlari mavzusida taqdim etilgan adabiy asarlarni tanqidiy o'rganib chiqishdan boshlanadi. Shundan so'ng talaba kurs ishining rejasini tuzib chiqadi. Kirish qismi odatda qisqacha yoziladi. Kirish qismida mavzuning ilmiy-nazariy mohiyati, dolzarbligi va amaliy jihatdan ahamiyati bayon qilinadi. Mavzuning asosiy qismi reja asosida yoritiladi va tahliliy o'rganiladi.

Tavsiya etilayotgan kurs ishlarining mavzulari:

1. Qadimgi turkiy moniylik adabiyotida axloqiy- badiiy talqini
2. Mumtoz adabiyotning shakllanishidagi asosiy omillar: mifologiya, xalq og'zaki ijodi va tarjima asarlar
3. Mumtoz adabiyot taraqqiyotida "Qur'oni karim" g'oyalari va hadisi sharifdagi fikrlarning o'rni va ahamiyati
4. Tasavvuf ta'limotining mumtoz adabiyot taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati
5. An'ana va o'ziga xoslik - mumtoz adabiyotdagi eng muhim adabiy hodisa
6. O'zbek mumtoz adabiyotining tur va janrlari.
7. Lirik turga mansub janrlar va ularning o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rni
8. Devon, bayoz va tazkiralalar - mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim manbalar
9. Epik she'riyat va unga xos muhim xususiyatlar
10. O'zbek mumtoz adabiyotida obrazlar tizimi (lirik va epik asarlar misolida)
11. O'zbek mumtoz adabiyotida an'anaviy obrazlar genezisi va rivojlanishi tadriji
12. Sharq adabiyoti uchun umumiy bo'lgan obrazlar tasnifi va tavsifi
13. O'zbek mumtoz adabiyotining ramz va timsollar olami
14. O'zbek mumtoz adabiyotida majoz tarixi
15. Mumtoz adabiyotda she'riy va nasriy uslub
16. Nasriy asarlarning uslubiy xosliklari
17. Xalq kitoblarining paydo bo'lish sabablari va adabiy jarayon

18. Forobiyning she'r, uning hosil bo'lish qonuniyatlari va insoniyat tomonidan idrok etilishi haqidagi fikrlari
19. Adabiy va tarixiy manbalarda mumtoz poetikaga doir qarashlar
20. Adabiy tur tushunchasi va uning ifodalanish shakllari
21. G'azal va uning turlari
22. Qasida va uning tarkibiy tuzilishi
23. Kichik lirik janrlar tavsifi
24. O'zbek mumtoz adabiyotida masnaviy janrining tutgan o'rni
25. Aruz vazni va mumtoz janrlar munosabati
26. "Bilgamish" dostonining turkiy xalqlar eposiga munosabati
27. Qadimgi qahramonlik eposining yunon manbalari orqali yetib kelgan namunalari: "Tumaris", "Shiroq"
28. Abu Ali ibn Sinoning adabiy faoliyati
29. "Devonu lug'otit turk" asaridagi adabiy janrlar
30. "Qutadg'u bilig" dostonida komil inson va ezgulik g'oyalarning ifodalanishi
31. "Qutadg'u bilig" dostonida muallif ijtimoiy-siyosiy qarashlari
32. "Qutadg'u bilig"dagi to'rtliklarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
33. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida odob-axloq, so'z va tilga, ilm-ma'rifatga munosabat masalalari
34. Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"ida insoniy fazilatlarining ulug'lanishi, nopoklik, nodonlik, dunyoparastlik kabi illatlarning qoralanishi
35. "Qisasi Rabg'uziy"dagi hikmatlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
36. "Muhabbatnoma"ning tematik-g'oyaviy xususiyatlari
37. Pahlavon Mahmud ruboiylarining axloqiy-ta'limiy hamda falsafiy mohiyati
38. Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida Yusuf obrazi
39. Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida Zulayho obrazi
40. Atoiy lirikasida hayot va sevgi mavzusi
41. Sakkokiy-qasidanavis
42. Lutfiy lirikasida yor va oshiq obrazlari
43. Lutfiy lirikasida badiiy tasvir vositalari

44. Lutfiy va Navoiy
45. Alisher Navoiy ruboyilarida axloq-odob masalalari in'ikosi
46. Navoiy lirikasida adolatsizlik va munofqlikning fosh etilishi
47. Navoiy lirikasida tazod san'ati
48. Navoiy lirikasida tadjir san'ati
49. Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyalar va ularning ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati
50. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida xalq og'zaki ijodi motivlari
51. Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida qahramonning ruhiy olami
52. "Sab' ai Sayyor"dagi "Bahrom va Dilorom" hikoyasining g'oyaviy motivlari
53. "Saddi Iskandariy"dagi hikoyalarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
54. "Lison ut-tayr"dagi obrazlar tasnifi
55. Navoiyning "Shayx San'on" hikoyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
56. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida xalqlar do'stligi g'oyasining kuylanishi
57. Navoiyning "Layli va Majnun" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
58. "Mehr va Suxayl" hikoyasida bosh qahramon obrazi
59. Bobur ruboyilarida g'urbat motivlari
60. "Boburnoma"da Movarounnahr shaharlarining badiiy tasviri
61. "Boburnoma"ning o'zbek adabiyoti va madaniyatini o'rganishdagi ahamiyati
62. "Boburnoma"da Hindiston tabiatining badiiy tasviri
63. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostonida shoir ijodiy niyati va hayot haqiqati in'ikosi
64. Xojaning san'atkorlik mahorati
65. Mashrab lirikasida ijtimoiy norozilik motivlari
66. Mashrab g'azallarida dunyoning o'ziga xos badiiy-falsafiy idrok etilishi
67. Xuvaydo g'azallarida axloq-odob, falsafiy va ma'naviy komillik mezonlarining badiiy ifodasi
68. Gulxaniy masallarining ba'zi bir g'oyaviy-tematik xususiyatlari

69. Nodira g'azaliyotida lirik qahramon obrazi
70. Maxmur hajviyotining g'oyaviy yo'nalishi
71. Ogahiy ruboiylarining ba'zi bir g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
72. Ogahiy lirikasida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik va tabiat tasviri
73. Muqimiyning lirik qahramoni va uning ma'naviy olami
74. Muqimiy "Sayohatnoma"sining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
75. Muqimiy hajviyotida badiiy portret
76. Muqimiy ijodida xalq obrazi
77. Furqat lirikasida Vatan ishtiyoqi va g'urbat iztirobi tasviri
78. M.Behbudiyning "Padarkush" dramasi ma'rifatparvarlik motivlari
79. A.Avloniy she'riyatida vatanparvarlik va millatparvarlik g'oyasining badiiy talqini
80. A.Qodiriyning satirik asarlarida xarakter yaratish mahorati
81. "O'tgan kunlar" romanida sevgi-muhabbat talqini
82. "O'tgan kunlar" romanida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining badiiy talqini
83. "Mehrobdan chayon" romanida davr va shaxs talqini
84. Fitrat she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
85. Fitrat – dramaturg
86. "Abulfayxon" tragediyasida davr va shaxs fojiasi talqini
87. Cho'lpon she'riyatida erk, ozodlik motivlari
88. Cho'lpon she'riyatida davr va shaxs fojiasi talqini
89. "Kecha va kunduz" romanida psixologizm
90. Oybek lirikasida tabiat va inson munosabatlari tasviri
91. "Qutlug' qon" romanida milliy ozodlik motivlarining badiiy talqini
92. "Bolalik" qissasi avtobiografik asar sifatida
93. G'.G'ulom she'riyatida falsafiy teranlik va badiiy mukammallik
94. G'.G'ulomning hikoyanavislik mahorati
95. "Shum bola" - yumoristik asar sifatida
96. A.Qahhor satirik hikoyalar ustasi

97. "O'tmishdan ertaklar" qissasida davr va shaxs talqini
98. "Sinchalak" qissasidagi Saida va Qalandarov obrazlari talqini
99. "Sarob" romanida davr va shaxs tasviri
100. Uyg'un – lirik shoir
101. Mirtemir she'riyatida yetakchi motivlar
102. M.Shayxzodaning "Jaloliddin" tragediyasida vatanparvarlik va millatparvarlik motivlari
103. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida shaxs fojiasi talqini
104. Zulfiya she'riyatida vatan va hijron motivlari
105. A.Muxtorning "Chinor" romanida syujet va kompozitsiya
106. "Ulug'bek xazinasini" romanida davr va shaxs fojiasi talqini
107. "Diyonat" romanida zamon va qahramon ruhiyati tasviri
108. O.Yoqubov – tarixiy romanlar ustasi
109. "Adolat manzili" shaxs fojiasi talqini
110. "Qaydasan, Moriko" asarida insoniylik g'oyalarning badiiy talqini
111. P.Qodirovning "Uch ildiz" romanida davr va qahramon tasviri
112. "Yulduzli tunlar" romanida Bobur va boburiylar obrazlari tasviri
113. "Avlodlar dovoni" romanida Xumoyun va Akbar obrazlari tasviri
114. E.Vohidov she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari
115. E.Vohidovning "Yoshlik" devonida motivlar talqini
116. "Ruhlar isyoni" - fojiiy asar sifatida
117. "Istanbul fojiasi" dramatik dostonida davr va shaxs talqini
118. E.Vohidov – tarjimon
119. A.Oripov she'riyatida fojiiylik
120. A.Oripov she'riyatida vatan va vatanparvarlik motivlari
121. A.Oripov she'riyatida sevgi-muhabbat motivlari
122. "Jannatga yo'l" dramatik dostonida falsafiylik va badiiylik
123. S.Ahmadning "Ufq" trilogiyasida davr va shaxs talqini
124. O'.Hoshimovning "I'ushda kechgan umrlar" romanida fojiiylik

125. "Ikki eshik orasi" romanida zamon qahramon munosabatlarining badiiy talqini
126. Sh.Xolmirzayev – mohir hikoyanavis
127. T.Murod qissalarida milliylik
128. "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi Dehqonqul obrazi ramziy-fojiviy obraz sifatida.

VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Mumtoz adabiyoti namunalari. 1,2-jild. Nashrga tayyorlovchilar: H.Boltaboyev, N.Rahmonov. O'zMU nashriyoti. 2003.
2. R.Orzibekov. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T.: Fan, 2006.
3. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
4. B.Qosimov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoni. (Xalq so'zi 2017 yil, 8-fevral).
2. Vohidov R., Eshonqulov X. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. -T.: Adabiyot jamg'armasi, 2006.
3. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – T.: 2005.
4. Dolimov U. Milliy uyg'onish pedagogikasi. –T.: Noshir, 2012.
5. Qosimov B. Milliy o'yg'onish: ma'rifat, jasorat, fidoiylilik. – T.: Ma'naviyat, 2002.
6. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. -T.: Universitet, 2006
7. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma'naviyat. -T.: Ma'naviyat, 2015
8. Jabborov N. Ma'rifat nadir. -T.: Ma'naviyat, 2010
9. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. - T.: Akademiya, 2000.

10. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: Ma'naviyat. 2000.
11. Karimov H. Istiklol davri adabiyoti. - T.: 2010.
12. Mirvaliev S. O'zbek adiblari. - YOzuvchi, 2000.
13. Adabiyot ensiklopediyasi // Tuzuvchi: H. Boltaboev. – T.: Mumtoz so'z, 2015.
14. Mumtoz adabiyoti namunalari. 3-jild. Nashrga tayyorlovchilar: H. Boltaboyev, N. Rahmonov. O'zMU nashriyoti. 2002.
15. N. Karimov. XX asr manzaralari. – T.: 2008.
16. Alisher Navoiy. Yigirma tomlik mukammal asarlar majmui. - T.: Fan, 1991-2005.
17. Qayumov Aziz. Tanlangan asarlar. 10 jildlik. - T.: Mumtoz so'z. 2010.
18. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchilar: S. Hasanov, N. Otajonov va boshqalar. - T.: "Fan", 2002.
19. H. Qudratillayev. Boburning badiiy mahorati haqida. - T.: Sharq nashriyot aksiyadorlik kompaniyasi, 2005.
20. Mashrab. Mehribonim qaydasan. Devon. T.: 1990 y.
21. Huvaydo. Devon. -T.: 2000 y.
22. Gulxaniy. Zarbulmasal va g'azallar. -T.: 1990 y.
23. Uvaysiy she'riyatidan. -T.: 1991 y.
24. Karimov H. XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari va milliy istiqbol mafkurasi. – T.: 1993.
25. Karimov H. Davr va ijod. – T.; Fan, 2001.
26. Karimov H. Milliy ozodlik kurashchilari va adabiyot. T.: Kamolot, 1997.
27. Karimov H. Shukur Xolmirzayev. – T.: Qatortol-Kamolot, 1999.
28. Karimov H. O'tkir Hoshimov. T.: Yangi asr avlodi, 2001.
29. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1999.
30. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: Sharq, 1997.
31. Aliyev A. Istiqbol va adabiy meros – T.; O'zbekiston, 1997.
32. Boltaboyev H. Fitrat. – T.; Yozuvchi, 1996.

Internet saytlari

1. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti
2. <http://ensiklopediya.uz> – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti
3. <http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portal
4. <http://ziyonet.uz> – O‘zbekiston milliy ta’lim portali
5. <http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi
6. <http://www.kamolot.uz> – “Kamolot” yoshlar ijtimoiy sayti
7. <http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi
8. <http://referatlar.uz> – Referatlar, testlar, kitoblar va media ta’lim sayti
9. <http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi
10. <http://translate.google.co.uz> – Google –tarjimon sayti
11. <http://arxiv.uz> – Referatlar arxivi
12. <http://txt.uz> – Elektron kutubxona

u. *Truyceyurobo*
Shufba



